MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

“MUNTAXAB AT-TAVORIX” ASARIDA QO‘QON ADABIY-MADANIY HAYOTI VA IJODKOR SHAXSLAR TALQINI

Navbahor Yo‘lchiyeva,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
Tahririy noshirlik bo‘limi boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr birinchi yarmi Qo‘qon adabiy-madaniy muhiti va “Muntaxab at-tavorix” asarining tarixiy-badiiy qimmati tahlil etiladi. Asarda aks etgan davlat arboblari ijodi, saroy va haram ahlining kitobxonlik madaniyati, tarixnavislik uslubidagi she’riyat va nasr sintezi hamda siyosiy-diplomatik jarayonlar ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqotda Qo‘qon xonligidagi ulamolarning siyosiy munosabatlardagi o‘rni, o‘tkir satirik va insonparvarlik motivlari, shuningdek, tarixiy voqealarni she’riy xronogrammalar orqali muhrlash an’anasi chuqur ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Muntaxab at-tavorix”, Qo‘qon adabiy muhiti, tarixnavislik, kitobxonlik madaniyati, Mavlono Hoziq, nodir qo‘lyozmalar, badiiy sintez.*

Аннотация: *В данной статье анализируются литературно-культурная среда Кокандского ханства первой половины XIX века и историко-художественная ценность произведения “Мунтахаб ат-таварих”. Научно освещены творчество государственных деятелей, культура чтения при дворе и в гареме, синтез поэзии и прозы в стиле историографии, а также социально-политические процессы. В исследовании подробно рассматриваются роль исламских ученых (улемов) в дипломатических отношениях, острые сатирические и гуманистические мотивы, а также традиция увековечения исторических событий через стихотворные хронограммы.*

Ключевые слова: *“Мунтахаб ат-таварих”, Кокандская литературная среда, историография, культура чтения, Мавлана Хазик, редкие рукописи, художественный синтез.*

Abstract: *This article analyzes the literary and cultural environment of the Kokand Khanate in the first half of the 19th century and the historical and artistic value of the work “Muntakhab at-Tawarikh”. The creative activity of statesmen, the reading culture in the court and harem, the synthesis of poetry and prose in historiographical style, and socio-political processes are examined from a scholarly perspective. The study explores the role of Islamic scholars (ulema) in diplomatic relations, sharp satirical and humanistic motifs, as well as the tradition of commemorating historical events through poetic chronograms.*

Keywords: *“Muntakhab at-Tawarikh”, Kokand literary environment, historiography, reading culture, Mawlana Haziq, rare manuscripts, artistic synthesis.*

Qo‘qon xonligi XIX asr o‘zbek davlatchiligi tarixida yirik adabiy-madaniy markaz bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda bu merosni asrab-avaylash hamda ilmiy o‘rganish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qator qarorlar, xususan, “Qo‘qon shahrini turizm va hunarmandchilik markaziga aylantirish”, shuningdek, “O‘zbekiston milliy

madaniy merosini asrash va targ‘ib qilish”ga oid farmon va qarorlar bu tarixiy shahar salohiyatini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim huquqiy poydevor vazifasini o‘tamoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilda Qo‘qon shahriga tashrifi chog‘ida hamda keyingi yillarda imzolangan tegishli hujjatlarda Qo‘qon adabiy muhitining tarixiy ildizlarini tiklash, Xudoyorxon o‘rdasi va boshqa madaniy obyektlarni tadqiq etish, shuningdek, mahalliy shoir-yozuvchilarning asarlarini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish masalalari alohida ta’kidlangan.

Bugungi kunda Qo‘qonning boy tarixiy-adabiy qiyofasini tiklashda “Muntaxab at-tavorix” kabi tarixiy-biografik manbalar muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi va adabiy hayot uzviy bog‘liqlikda rivojlangan. Muhammadalixon va uning vorislari davrida ijodkorlar, davlat arboblari va ulamolar o‘rtasidagi hamkorlik an’anaviy maqomga ega bo‘lib, bu jarayonlar “Muntaxab at-tavorix” sahifalarida o‘zining batafsil ifodasini topgan. Asarda keltirilgan Is’hoqbek devonbegi, Mavlono Hoziq singari shaxslarning faoliyati, ularning nafaqat davlat ishlari, balki she’riyat va tarjima san’atidagi mahorati, shuningdek, Poshshoxon tomonidan keltirilgan “Bahori donnish”, “Mahfiloro” kabi asarlarga oid munosabatlar o‘sha davr saroy adabiy muhitining professional darajasini belgilab beradi.

Mazkur maqolada “Muntaxab at-tavorix” asarida aks etgan tarixiy voqealar – Xo‘jand va Farg‘ona vohasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xonliklararo nizolar hamda bu voqealarning adabiy manzarasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy shaxslarning qismati, ularning she’riyatga munosabati hamda davr adabiy muhitidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, xonlikdagi elchilik madaniyati, diplomatik yozishmalar va ulamolar kengashining madaniy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni “Muntaxab at-tavorix”dagi faktlar asosida ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

“Muntaxab at-tavorix” asarida minglik amirzodalari va harbiy sarkardalar faoliyati faqat ma’muriy-siyosiy jihatdan emas, balki ularning ma’naviy-adabiy olami, xususan, she’riy iste’dodi orqali ham ochib beriladi. Bu borada Is’hoqbek devonbegi yorqin misol bo‘la oladi. Muallif uning nafaqat yuksak fazilatli davlat arbobi, balki nozik ta’bli shoir bo‘lganini alohida e’tirof etadi.

Is’hoqbek qalamiga mansub fors tilidagi:

“Bahor omad maro asiri gul-u gulzor boisti...” hamda turkiy tildagi:

“Bodai vasli nasib ermish manga bu vajidin,

Kim, erur soqiy raqibu jom iqbolim bugun” [1, 85], deb boshlanuvchi baytlar uning ikki tilda (forsiy va turkiy) barobar ijod qilganini ko‘rsatadi.

Muallifning uning tab’i ravon, so‘zlari yoqimli va she’riy tili teran bo‘lganini alohida ta’kidlashi XIX asr birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitida davlat boshqaruvidagi yuqori tabaqa vakillari ham mumtoz adabiyot qoidalarini mukammal egallagani, she’riyat ularning kundalik hayoti va ma’naviy olamining ajralmas qismi bo‘lganidan dalolat beradi.

Xo‘jand va Farg‘ona vohasi atrofidagi murakkab siyosiy jarayonlar, xususan, Qo‘qon xonligi (Muhammadalixon davri) bilan Buxoro o‘rtasidagi munosabatlar shunchaki harbiy to‘qnashuvlardan iborat bo‘lmagan. Kitobda bu jarayonlarning madaniy-diplomatik qirralari ham yoritilgan. Ikki davlat o‘rtasidagi elchilik missiyalarida oddiy elchilar emas, balki nufuzli din peshvolari va ulamolar – eshon hidoyatpanoh Sulaymon xo‘ja

shayxulislom, eshon Zokir xo‘ja shayxulislom va Orif xo‘ja a’lam kabi shaxslarning qatnashgani muhim ilmiy fakt hisoblanadi. Ularning vositachiligida turli tuhfalar, sovg‘alar va maktublar almashingani qayd etilgan. Bu o‘sha davr Sharq diplomatiyasida ulamolar va so‘fiy shayxlari nafaqat diniy arbob, balki siyosiy nizolarni yumshatuvchi, tomonlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi “madaniy elchi” maqomiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, Qo‘qon adabiy-siyosiy muhitida din va davlat, siyosat va ma’rifat uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘lgan [1, 86].

“Muntaxab at-tavorix” asarida keltirilgan ma’lumotlar XIX asr birinchi yarmida Qo‘qon xonligi saroyi va haram ahlining kitobxonlik madaniyati naqadar yuksak bo‘lganini ko‘rsatuvchi noyob manbashunoslik dalilidir.

Poshshoxon tilidan keltirilgan muloqotda Inoyatulloh Kanbuning “Bahori donish”, Barkhurdor Turkman qalamiga mansub “Mahfiloro”, Ziyouddin Naxshabiyning “To‘tinoma”, xalq orasida mashhur “Chor darvesh” qissasi hamda Ahmad ibn Yusuf qalamiga mansub, Muhammad Said at-Tabib al-Isfahani fors tiliga tarjima qilib sharhlagan “Jome al-abvob” kabi asarlarning nomma-nom tilga olinishi o‘ta muhimdir [1, 92]. Bu holat Qo‘qon adabiy muhitida nasriy asarlar, axloqiy-didaktik qissalar va hikoyatlar shunchaki shaxsiy kutubxona jildlarida qolib ketmaganini, balki xonlik ayollari va aristokratiyasi ularni chuqur mutolaa qilganini ko‘rsatadi. Eng muhimi, taqdir sinovlari va muloqot chog‘ida aynan shu kitoblardan argument sifatida iqtibos keltirish o‘sha davr saroy ayollari orasida ma’rifiy odat va yuksak intellektual daraja tusiga kirganidan dalolat beradi.

Umarxon va Muhammadalixon davri Qo‘qon adabiy muhitining eng etakchi shoir va ilm-fan namoyandalaridan biri bo‘lgan Mavlono Hoziq (Junaydulloh Hoziq) ijodi asarda alohida o‘rin tutadi.

Farg‘ona xonligining 1842-yildagi fojiali fathi va siyosiy o‘zgarishlari tarixiga bag‘ishlab Mavlono Hoziq tomonidan maxsus she’riy xronogramma – tarix (sana bitish) yozilgani qayd etilgan [1, 99]. Bu manba Hoziqning nafaqat lirik shoir, balki tarixiy voqealarni badiiy-she’riy shaklda muhrlashga qodir bo‘lgan yirik tarixnavis-olim ekanini ko‘rsatadi. Qo‘qon adabiy muhitida tarixiy xotirani she’riyat va sana bitish san’ati orqali abadiylashtirish an’anasi kuchli bo‘lgani uning ilmiy-madaniy salohiyatini belgilaydi.

Xonlikning madaniy-adabiy muhiti deganda, shubhasiz, uning homiysi bo‘lgan buyuk siymolar tilga olinadi.

Mashhur shoira, Qo‘qon adabiy muhitining ilhomchisi va homiylik ramzi bo‘lgan Mohlaroyim (Nodira) hamda uning kelini Bibish oyimning taqdiri orqali xonlik haramining ichki muhiti yoritilgan. Amir Nasrullohning 1842-yildagi bosqini va shafqatsiz siyosati natijasida Qo‘qonning bu ulkan madaniy-adabiy o‘chog‘iga etkazilgan fojiali zarba, Mohlaroyim va uning sulolasi boshiga tushgan og‘ir sinovlar taqdiri ochib berilgan. Bu faktlar Qo‘qon xonligidagi adabiy jarayonlar faqat erkak ijodkorlar doirasi bilan cheklanib qolmay, balki Mohlaroyim kabi davlat arbobi va shoiralar rahbarligida butun bir ma’rifiy sulolaviy darajaga ko‘tarilganini, biroq tarixiy fojialar bu yorqin madaniy muhitga ulkan ziyon etkazganini ko‘rsatadi.

“Muntaxab at-tavorix” asarining eng asosiy ilmiy-estetik xususiyatlaridan biri – nasr va she’riyatning mukammal sintezidir.

Muallif har bir tarixiy voqeani bayon qilishda quruq xronika bilan cheklanib qolmay, ruboiy, qit’a va baytlardan unumli foydalangan. Asar matniga singdirilgan adolat, bevafolik, ajal va qazo mavzusidagi falsafiy baytlar shunchaki bezak emas, balki muallifning voqealarga nisbatan emotsional munosabatini va davrning ruhini ochib beruvchi vositadir. Farg‘ona xonligining 1842-yildagi fojiali fathi va siyosiy o‘zgarishlari davrning yirik shoiri va ziyolisi Mavlono Hoziq tomonidan maxsus she’riy xronogramma – tarix tarzida bitilgani Qo‘qon adabiy muhitida tarixiy xotirani badiiy-she’riy shaklda muhrlash an’ana darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Asarda jamoatchilik ongi va xalqning siyosiy jarayonlarga munosabati o‘tkir satira orqali juda yorqin aks etgan. Ibrohim dodhoh kabi amirlarning qochishi va sharmandalik bilan mag‘lub bo‘lishi xalq orasida “zandor” (xotiniga tobe, erksiz) kabi satirik atamalar bilan yodga olinishi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining siyosiy satiradagi quvvatini va xalq tilining o‘tkirligini ko‘rsatadi [1, 100].

Tarixchi H.N. Bobobekovning tadqiqotlarida ham qayd etilganidek, Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar xon hokimiyati va markaziy boshqaruvdagi nizolar bilan hamohang tarzda rivojlangan. Ayniqsa, xonlikning harbiy-siyosiy qudrati hamda amirlarning saroydagi ta’siri, shuningdek, davlatni boshqarishda mahalliy zodagonlar va ulamolarning o‘zaro manfaatli munosabatlari xonlikning barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lgani “Muntaxab at-tavorix”dagi voqealar tasvirida ham o‘z tasdig‘ini topadi [2, 125].

Matnda “Chumchuq burgutning ishini qiladi” kabi maqollarning qo‘llanilishi, shuningdek, voqealarni sharhlashda “Humoy va boyqush”, “Yajuj-Majuj” kabi mumtoz adabiyot va mifologik obrazlarga murojaat qilinishi muallifning Qo‘qon adabiy muhitida shakllangan badiiy-falsafiy uslubni mukammal egallaganidan dalolat beradi [1, 91–101].

Xonliklararo munosabatlarda hujjatlar va xalqlar birligi masalasi o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Asarda qayd etilgan “inoyatnomalar” (rasmiy yozishmalar) oddiy diplomatik xat emas, balki muallif va uning zamondoshlari uchun taqdirni hal qiluvchi hayot-mamot masalasi bo‘lgan.

Sheralixonning taxtga o‘tirishi va Buxoro amiri Nasrullohga qarshi kurash jarayonida “o‘zbek, qirg‘iz, qipchoq va qozoq” elatlarining birdamligiga alohida urg‘u berilishi o‘sha davr Qo‘qon adabiy muhitining mintaqadagi xalqlarni birlashtiruvchi umumturkiy (pan-turkiy) mentalitetni o‘zida mujassam etganini yaqqol namoyon qiladi.

“Muntaxab at-tavorix” asaridagi eng yorqin va ahamiyatli faktlardan biri Mavlono Hoziqning Amir Nasrullohga yo‘llagan nasihatomuz she’riy maktubidir. Bu holat o‘sha davrda adabiyot shunchaki ko‘ngilochar san’at emas, balki kuchli siyosiy qurol va axloqiy mezon vazifasini bajarganini ko‘rsatadi.

Shoirning maktubda “Shoh ota kabi bo‘lmog‘i darkor” degan qat’iy talabni qo‘yishi Qo‘qon adabiy muhitida hukmdorlarga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo‘yilganini, ziyolilar o‘z so‘zlari va ijodiy nufuzi orqali hokimiyat siyosatiga ta’sir o‘tkazishga intilganini ko‘rsatadi [1, 106].

Shoirning o‘zini “jon foshon” (jonini tikkan davlatxoh) deb atashi ulamolar va shoirlar xonliklararo qonli nizolarda tinchlikni targ‘ib qiluvchi muhim “madaniy elchi” vazifasini bajarganini yaqqol tasdiqlaydi.

Muallif tarixiy fojialarni tasvirlashda o‘ziga xos tasviriy vositalar va chuqur insonparvarlik ruhiga tayanadi.

Urush va qirg‘inlarni tasvirlashda “Yujuj-Majuj”, “Rustam va Asfandiyor”, “Qiyomat qo‘pdi” kabi badiiy-mifologik obrazlarga murojaat qilinishi Qo‘qon tarixnavislik maktabining xalq eposi va mumtoz adabiyot an’analarini tarixiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirib yozish mahoratini ko‘rsatadi.

Matndagi “Oqib yotgan qonlar, otasining qonini ona suti kabi ichishar” kabi o‘ta ta’sirli detallar o‘sha davr tarixnavisligida humanistik g‘oyalar ustuvor bo‘lganini bildiradi [1, 98]. Bu shuni ko‘rsatadiki, voqealar sovuqqon arxiv xronikasi sifatida emas, balki muallifning qalbidan o‘tgan “yurak og‘rig‘i” va xalq fojiasi sifatida qalamga olingan.

Asar matnida tez-tez uchraydigan falsafiy mushohadalar Qo‘qon adabiy muhitining poydevorini tashkil etadi. Asardagi “Falakning bevafo ekani”, “Qazo va qadar”, “Dunyoviy boylikning o‘tkinchiligi” kabi motivlar Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvufiy falsafaga borib taqaladi.

Ushbu falsafiy baytlar va umumlashmalar asarni nafaqat siyosiy voqealar bayoni, balki o‘quvchini hayot saboqlari, adolat va o‘tkinchi dunyo sinovlari haqida fikr yuritishga o‘rgatuvchi yirik axloqiy darslik darajasiga ko‘taradi.

XIX asr birinchi yarmi Qo‘qon xonligi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining yorqin manzarasini o‘zida mujassam etgan “Muntaxab at-tavorix” asari mintaqaning yirik adabiy-estetik va falsafiy obidasi hisoblanadi. Asar tahlili Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos fundamental xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Xonlikda davlat boshqaruvi va ijodiy jarayonlar uzviy bog‘liqlikda rivojlangan bo‘lib, minglik amirzodalari orasida Is’hoqbek devonbegi kabi davlat arboblarining ikki tilda barobar ijod qilishi, tab’i ravon va she’riy tili teran bo‘lishi adabiyotning jamiyat hayotidagi yuksak mavqeini ta’minlagan. Shuningdek, Umarxon va Muhammadalixon davrining etakchi ziyolisi Mavlono Hoziqning Farg‘ona xonligining 1842-yildagi fojiali fathi va siyosiy o‘zgarishlarini maxsus she’riy chronogramma – “tarix” tarzida bitishi, uning Amir Nasrullohga yo‘llagan nasihatomuz maktubi orqali o‘zini “jon foshon” deb atashi adabiyot shunchaki ko‘ngilochar san’at emas, balki hukmdorlarni adolatga chorlovchi kuchli siyosiy qurol va axloqiy mezon bo‘lganini ko‘rsatadi. Xonliklararo munosabatlarda elchilar – Sulaymon xo‘ja, Zokir xo‘ja va Orif xo‘ja a’lam kabi nufuzli din peshvolarining qatnashishi ulamolarning siyosiy nizolarni yumshatuvchi “madaniy elchi” vazifasini bajarganidan dalolat beradi.

Adabiyotshunos olim A.P.Qayumov o‘zining Qo‘qon adabiy muhitiga oid tadqiqotlarida XIX asr Farg‘ona vodiysida she’riyat shunchaki ko‘ngilochar mashg‘ulot emas, balki ijtimoiy-ma’rifiy hayotning eng muhim qismiga aylanganini ta’kidlaydi. Olimning xulosalariga ko‘ra, Qo‘qon saroyi nafaqat davlat ishlari, balki adabiy bahslar va she’riy mushoiralar markazi bo‘lgan. Bu muhitda Nodira, Uvaysiy va Mavlono Hoziq kabi siymolarning tutgan o‘rni xonlikning intellektual salohiyatini yuksaltirib, mumtoz adabiyotimizning eng yorqin sahifalarini yaratishga zamin yaratgan [3, 88].

Asarda aks etgan eng nodir manbashunoslik dalillaridan biri saroy va haram ahlining kitobxonlik madaniyati bilan bog‘liqdir. Poshshoxon tilidan keltirilgan muloqotda Inoyatulloh Kanbuning “Bahori donnish”, Barkhurdor Turkman qalamiga mansub “Mahfiloro”, Ziyouddin Naxshabiyning “To‘tinoma”, xalq orasida keng tarqalgan “Chor

darvesh” qissasi hamda Ahmad ibn Yusuf qalamiga mansub “Jome al-abvob” kabi mumtoz asarlarning nomma-nom tilga olinishi Qo‘qon adabiy muhitida nasriy asarlar va didaktik qissalarning ommaviy tus olganini ko‘rsatadi. Xonlik ayollari va aristokratiyasi Sharq mumtoz adabiyotidan chuqur xabardor bo‘lib, taqdir sinovlari va muloqot chog‘ida aynan shu kitoblardan argument sifatida iqtibos keltirishi o‘sha davr jamiyatining ma’rifiy va intellektual salohiyati nechog‘li yuksak bo‘lganini isbotlaydi.

“Muntaxab at-tavorix” muallifi tarixiy voqealarni bayon qilishda nasr va she’riyatni mukammal sintez qilgan. Matnga singdirilgan ruboiy, qit’a va baytlar shunchaki bezak emas, balki muallifning voqealarga nisbatan emotsional munosabatini ifodalovchi vositadir. Voqealarni sharhlashda “Humoy va boyqush”, “Chumchuq va burgut”, shuningdek, “Yajuj-Majuj” va “Rustam va Asfandiyor” kabi epik va mifologik obrazlarga murojaat qilinishi Qo‘qon tarixnavislik maktabining xalq eposi va mumtoz adabiyot an’analarini tarixiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirib yozish mahoratini ko‘rsatadi. Xalqning siyosiy jarayonlarga munosabati o‘tkir satira orqali ochib berilib, Ibrohim dodxoh kabi amirlarning mag‘lubiyati xalq orasida “zandor” (xotiniga tobe, erksiz) kabi satirik atamalar bilan yodga olinishi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining siyosiy satiradagi quvvatini namoyon etadi. Shuningdek, Sheralixonning taxtga chiqishi va Buxoro amiri Nasrullohga qarshi kurashda “o‘zbek, qirg‘iz, qipchoq va qozoq” elatlarining birdamligiga urg‘u berilishi o‘sha davr Qo‘qon adabiy muhitining umumturkiy mentalitetni o‘zida mujassam etganini ko‘rsatadi.

Muallif urush va fojialarni tasvirlashda quruq xronika bilan cheklanib qolmay, “Oqib yotgan qonlar, otasining qonini ona suti kabi ichishar” kabi o‘ta ta’sirli real detallar orqali insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. Bu esa voqealar sovuqqon arxiv xronikasi sifatida emas, balki muallifning qalbidan o‘tgan “yurak og‘rig‘i” va xalq fojiasi sifatida qalamga olinganini bildiradi. Matnda tez-tez uchraydigan “Falakning bevafo ekani”, “Qazo va qadar”, “Dunyoviy boylikning o‘tkinchiligi” kabi tasavvufiy-didaktik motivlar asarning o‘ziga xos axloqiy darslik vazifasini o‘taganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qo‘qon shahrining tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash, milliy o‘zligimizni tiklash va targ‘ib etishga qaratilgan farmon va qarorlari ijrosi doirasida “Muntaxab at-tavorix” kabi nodir asarlarni ilmiy tadqiq etish bugungi kunda ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni anglash, milliy adabiy muhitimizning tarixiy ildizlarini bugungi yoshlarga etkazish va xalqimizning boy madaniy o‘tmishini yanada chuqur targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Hakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix (Saylangan tarixlar kitobi). Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Shodmon Vohidov. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.
2. Bobobekov H.N. Qo‘qon xonligi tarixi. – Toshkent: “Fan”, 1996.
3. Qayumov A.P. Qo‘qon adabiy muhiti. – Toshkent: “Fan”, 1961.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qo‘qon shahrini turizm va hunarmandchilik markaziga aylantirish to‘g‘risida”gi PQ-4352-son qarori. Toshkent, 2019-yil 4-iyun.